



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlar tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarning transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш ва иқтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo'jayeva I.O'. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....	216
Xo'jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....	287
Юлдашев А. Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqu.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojiddinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Макушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejapov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) va Fransiya taraqqiyot agentligi (FTA) tomonidan 470 million dollarlik besh yillik strategiya [1] O‘zbekistonning xalqaro tajribani o‘rganish va joriy etishga bo‘lgan intilishini ko‘rsatadi.

Ushbu tadqiqot kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning O‘zbekiston iqtisodiyotidagi hal qiluvchi o‘rnini, uning bandlikni ta‘minlash, YaIMni oshirish va tarmoqlarni diversifikatsiya qilishdagi asosiy drayver ekanligini tasdiqladi. Davlatning keng qamrovli qo‘llab-quvvatlash siyosati, moliyaviy yordam va qonunchilik islohotlari sektor rivojiga mustahkam zamin yaratmoqda. Biroq, moliyaviy resurslarga kirishdagi cheklovlar, ma‘muriy to‘siqlar va inson kapitali bilan bog‘liq muammolar dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ularni samarali bartaraf etish va ilg‘or xalqaro tajribani joriy etish orqali sektorning barqaror o‘rishini ta‘minlash mamlakatning kelgusi iqtisodiy taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Blackburn, R., De Clercq, D., & Heinonen, J. (Eds.). Palgrave Tadbirkorlik global iqtisodiyotlarda qo‘llanmasi. Cham: Palgrave Macmillan, 2020.
2. Audretsch, D. B., & Belitski, M. Tadbirkorlik va Iqtisodiy rivojlanish: Global nuqtai nazar. Cham: Springer, 2021.
3. Dana, L. P., & Ratten, V. (Muharrirlar.). Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda innovatsiya va tadbirkorlik. Abingdon: Routledge, 2022.
4. Audretsch, D. B., & Belitski, M. "Tadbirkorlikning iqtisodiy rivojlanishdagi roli: Global nuqtai nazar." Tadbirkorlik Tashabbuslari Anglashlari Jurnali, vol. 15, e00234, 2021.

UDK:336.22

**SOLIQ MA‘MURIYATCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI DAVLAT
BYUDJETI DAROMADLARINI BARQAROR OSHIRISH YO‘LLARI**

**ПУТИ УСТОЙЧИВОГО УВЕЛИЧЕНИЯ ДОХОДОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО
БЮДЖЕТА ПУТЕМ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАЛОГОВОГО
АДМИНИСТРИРОВАНИЯ**

**WAYS OF SUSTAINABLE INCREASE IN STATE BUDGET REVENUES BY
IMPROVING TAX ADMINISTRATION**

Qodirov Hasan Do‘stqobilovich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Moliya va turizm kafedrasi o‘qituvchisi
<https://orcid.org/0009-0007-6129-5446>

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonda soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda soliq bazasini kengaytirish, to‘lov intizomini kuchaytirish, raqamli nazorat va riskka asoslangan boshqaruv mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Tahlil natijalariga ko‘ra, byudjet daromadlarini oshirish soliq stavkalarini ko‘tarish emas, balki samarali va shaffof soliq ma‘muriyatchiligini yo‘lga qo‘yish orqali amalga oshiriladi.

Kalit so‘zlar. soliq ma‘muriyatchiligi, davlat byudjeti, byudjet daromadlari, soliq bazasi, soliq yig‘iluvchanligi, raqamlashtirish, riskka asoslangan nazorat, soliq qarzdorligi, fiskal barqarorlik, O‘zbekiston.

В данной статье анализируются теоретические и практические основы устойчивого увеличения доходов государственного бюджета путем совершенствования налогового

администрирования в Узбекистане. В исследовании рассматриваются механизмы расширения налоговой базы, укрепления платежной дисциплины, цифрового контроля и управления на основе рисков. Согласно результатам анализа, увеличение бюджетных доходов осуществляется не за счет повышения налоговых ставок, а путем внедрения эффективного и прозрачного налогового администрирования.

Ключевые слова: налоговое администрирование, государственный бюджет, доходы бюджета, налоговая база, собираемость налогов, цифровизация, риск-ориентированный контроль, налоговая задолженность, фискальная устойчивость, Узбекистан.

This article analyzes the theoretical and practical foundations for the sustainable increase of state budget revenues through the improvement of tax administration in Uzbekistan. The study examines mechanisms for expanding the tax base, strengthening payment discipline, digital control, and risk-based management. According to the results of the analysis, increasing budget revenues is achieved not by raising tax rates, but through the implementation of effective and transparent tax administration.

Keywords: tax administration, state budget, budget revenues, tax base, tax collectability, digitalization, risk-based control, tax debt, fiscal stability, Uzbekistan.

Davlat byudjeti daromadlarining barqaror o‘shishi makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va ijtimoiy majburiyatlarni bajarishning moddiy asosi hisoblanadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, daromadlarning uzoq muddatli o‘shishi soliq stavkalarini oshirish bilan emas, balki soliq ma’muriyatchiligi sifati, soliq bazasining kengligi va nazorat mexanizmlarining aniqligi bilan ta’minlanadi. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yilga mo‘ljallangan soliq-byudjet siyosatida ham soliq yukini pasaytirish va tizimni soddalashtirish iqtisodiy rivojlanishning muhim sharti sifatida belgilangan.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda soliq ma’muriyatchiligiga yondashuv tubdan o‘zgardi. Endilikda asosiy e’tibor nafaqat undiruvga, balki raqamli servislari, elektron hisobvara-fakturalar va riskka asoslangan soliq nazoratiga qaratilmoqda. 2025–2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish strategiyasida fiskal axborot sifati va hisobdorlikni oshirish ustuvor yo‘nalish etib belgilangan bo‘lib, soliq ma’muriyatchiligi ushbu tizimning daromadlar qismidagi tayanch mexanizmi hisoblanadi.

Mahalliy iqtisodchi olimlar soliq siyosati va soliq ma’muriyatchiligiga turli burchakdan yondashdilar. T.S.Malikov byudjet-soliq siyosati iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiluvchi faol davlat instrumenti ekanini, uning samaradorligi esa soliq stavkalaridagina emas, soliq bazasini shakllantirish va ma’muriyatchiligini yo‘lga qo‘yishda namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi [6]. A.V.Vahobov va T.S.Malikov moliyani taqsimlash va nazorat funksiyalari orqali talqin qilib, soliq tizimida ham huquqiy aniqlik va moliyaviy intizomning birligi muhimligini ko‘rsatadi [7]. A.A.Shernayev va N.E.Jiyanova davlat moliyasini boshqarish nazariyasida soliq ma’muriyatchiligini daromadlarni rejalashtirish, prognoz qilish, yig‘ish va nazorat qilishning uzviy tarkibiy qismi sifatida baholaydilar [8]. B.A.Xasanov tahriridagi darslikda esa soliqlar va moliya o‘rtasidagi bog‘liqlik, soliq ma’muriyatchiligida raqamlashtirish hamda soliq to‘lovchilar bilan munosabatlarni servis modeliga o‘tkazishning ahamiyati ochib beriladi [9]. Bu qarashlar bir nuqtada tutashadi: davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish soliq yukini oshirish orqali emas, soliq tizimining ishlash sifatini oshirish orqali ta’minlanadi.

So‘nggi yillarda mahalliy ilmiy adabiyotlarda soliq ma’muriyatchiligining raqamli transformatsiyasiga alohida e’tibor kuchaydi. Ayrim maqolalarda yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda raqamli texnologiyalar, xavf darajasini baholash va avtomatlashtirilgan nazorat usullari soliq yig‘iluvchanligini oshirishning eng ta’sirchan omillari sifatida baholanmoqda. Boshqa tadqiqotlarda soliq qarzdorligi ma’muriyatchiligi, imtiyozlar samaradorligini baholash va tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi kabi yo‘nalishlar alohida tahlil qilinmoqda. Bu yo‘nalishlarning barchasi amalda bitta savolga javob izlaydi: davlat byudjetining daromad qismi bir yillik yuqori ko‘rsatkich emas, balki barqaror manbaga qanday aylantiriladi.

Ushbu tadqiqotda iqtisodiy tahlilning dialektik va tizimli yondashuv usullaridan foydalanilgan bo‘lib, soliq ma‘muriyatchiligi hamda byudjet barqarorligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik qiyosiy va mantiqiy tahlil orqali ochib berildi. Tadqiqot jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Hisob palatasining 2025-yilga oid rasmiy statistik ma‘lumotlari va fiskal ko‘rsatkichlari empirik tahlil qilindi.

Soliq ma‘muriyatchiligi tushunchasi bugungi kunda faqatgina soliqlarni yig‘ish mexanizmi sifatida emas, balki davlat va biznes o‘rtasidagi iqtisodiy muloqotning asosi sifatida ko‘rilmogda. Tor ma‘noda bu tushuncha soliqlarni hisoblash, ro‘yxatga olish va undirish tartibini anglatadi. Biroq, zamonaviy iqtisodiyotda u ancha keng qamrovli bo‘lib, soliq to‘lovchini identifikatsiya qilish, soliq bazasini aniqlash, xavflarni baholash, nizolarni hal qilish va elektron xizmatlar ko‘rsatishni o‘z ichiga olgan murakkab institutsional tizimdir. Soliq ma‘muriyatchiligining sifati davlat byudjeti daromadlarining nafaqat hajmiga, balki ularning uzoq muddatli barqarorligiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

2025-yil davomida amalga oshirilgan soliq siyosati stavkalarni oshirish orqali emas, balki “soliq maydoni”ni kengaytirish orqali byudjet tushumlarini ko‘paytirishga qaratildi. Yalpi ichki mahsulotning real o‘sishi va soliq tushumlarining dinamikasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni quyidagi jadval orqali ko‘rishimiz mumkin:

1-jadval

2025-yil yakunlari bo‘yicha asosiy makroiqtisodiy va fiskal ko‘rsatkichlar

Ko‘rsatkich nomi	Miqdori (trln so‘m / foiz)	O‘tgan yilga nisbatan o‘sinh
Yalpi ichki mahsulot (YaIM)	1 849,7 trln so‘m	+7,7%
Davlat byudjeti jami daromadlari	308,5 trln so‘m	—
Soliq tushumlari (9 oylik tahlil)	158,7 trln so‘m	+18,0%
Yil yakuni bo‘yicha soliq tushumlari	—	+24,3%
Hududlar kesimidagi tushumlar	—	+26,5%
Iste‘molchilarga to‘langan keshbek	130,4 mlrd so‘m	(164,2 mln chek uchun)
Aniqlangan samarasiz xarajatlar	5,6 trln so‘m	(Audit natijasi)

2025-yilda QQS 12%, foyda solig‘i 15% va JShDS 12% darajasida barqaror saqlab qolindi. Bu tadbirkorlar uchun “o‘yin qoidalari” o‘zgarmasligini ta‘minladi. Asosiy e‘tibor noqonuniy aylanmalarni rasmiylashtirish va kichik biznesni legal maydonga olib chiqishga qaratildi. Bu yondashuv soliq yukini oshirmasdan daromadlarni ko‘paytirishning eng samarali yo‘lidir.

Zamonaviy modelda soliq to‘lovchi potensial huquqbuzar emas, balki mijoz sifatida ko‘riladi. Hisobot shakllarining soddalashtirilishi va soliq organlari harakatlarining prognoz qilinishi ixtiyoriy to‘lovlar ulushini oshirdi. Bu esa davlatning favqulodda undiruv choralari emas, odatiy intizomga tayanishiga imkon bermoqda.

Raqamli texnologiyalar soliq nazoratini real vaqt rejimiga o‘tkazdi. 2025-yilning iyul-sentyabr oylarida 5,9 trln so‘mlik shubhali elektron hisobvaraqa-fakturalar aniqlangani tizimning tahliliy quvvatidan dalolat beradi. Keshbek tizimi esa millionlab iste‘molchilarni soliq nazoratining faol ishtirokchisiga aylantirdi.

Barcha tadbirkorlarni birdek tekshirish davri o‘tdi. Endilikda sun‘iy intellekt va ma‘lumotlar tahlili asosida xavf darajasi yuqori bo‘lgan sub‘ektlar aniqlanmoqda. Bu usul halol tadbirkorga ortiqcha ma‘muriy yuk tushirmaydi va tekshiruv xarajatlarini kamaytiradi.

Soliq qarzdorligini undirishda barchaga bir xil jazo qo‘llash samarasiz. 2025-yilda vaqtincha likvidlik muammosiga duch kelgan korxonalar bilan tizimli qasddan to‘lamaydiganlar ajratib o‘rganildi. Erta ogohlantirish tizimi qarzdorlikning surunkali tus olishining oldini olmoqda.

Soliq imtiyozlari byudjet bazasini yemiruvchi omil bo‘lmasligi kerak. Shu sababli, har bir imtiyoz bo‘yicha yaratilgan ish o‘rni, jalb qilingan investitsiya va fiskal yo‘qotishlar balansi muntazam baholanib borilmoqda.

Byudjet barqarorligi hududlar kesimida ta'minlanishi zarur. 2025-yilda hududiy tushumlarning 26,5 foizga o'sishi mahalliy hokimiyat organlarining o'z hududidagi soliq bazasini (yer, mulk, xizmatlar) inventarizatsiya qilishga bo'lgan qiziqishi ortganini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2025-yilda soliq tushumlarining o'sishi (24,3%) YaIM o'sish sur'atidan (7,7%) sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Bu soliq ma'muriyatchiligidagi islohotlarning natijasidir. Biroq, Hisob palatasi aniqlagan 5 trln so'mlik qo'shimcha tushum imkoniyatlari hali ishlatilmagan rezervlar mavjudligini bildiradi.

Kelgusida soliq tizimining samaradorligi nafaqat mablag' yig'ish, balki yig'ilgan mablag'larning shaffof va natijador sarflanishi bilan o'lchanadi. Soliq to'lovchi o'zi to'lagan soliqning jamiyat rivojiga hissa bo'lib qo'shilayotganini ko'rsa, ixtiyoriy soliq intizomi va davlatga bo'lgan ishonch yangi bosqichga ko'tariladi.

Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish O'zbekiston uchun faqat fiskal vazifa emas, balki institutsional rivojlanish masalasidir. Barqarorlikning kaliti soliq stavkalarini mexanik oshirishda emas, soliq bazasini kengaytirish, ixtiyoriy intizomni kuchaytirish, raqamli ma'lumotlar bilan ishlash, riskka asoslangan nazoratni yo'lga qo'yish, soliq qarzdorligini aniq segment-siya asosida boshqarish, imtiyozlarni baholash va mahalliy soliq salohiyatini to'liq ishga solishdadir. O'zbekistonda qabul qilingan qonunlar, strategiyalar va amaliy raqamlar shuni ko'rsatmoqdaki, soliq ma'muriyatchiligining sifat jihatdan yangi bosqichga o'tishi byudjet daromadlarining barqaror o'sishi uchun real asos yaratmoqda. Keyingi bosqichda asosiy vazifa ushbu islohotlarning chuqurligini oshirish, ma'lumotlar integratsiyasini kengaytirish va soliq to'lovchi uchun qonuniylikni yengil, qoidabuzarlikni esa qiyin qiladigan muhitni to'liq shakllantirishdan iborat bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Yangi tahrir. 30.12.2019. URL: LEX.UZ.
2. O'zbekiston Respublikasining "Soliq va byudjet siyosatining 2025 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-1014-son, 24.12.2024. URL: LEX.UZ.
3. O'zbekiston Respublikasining "2025 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-1011-son, 24.12.2024. URL: LEX.UZ.
4. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. 2025 yil uchun belgilangan asosiy soliq stavkalari haqida rasmiy axborot. URL: GOV.UZ.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.04.2025 yildagi "2025–2030 yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 210-son qarori, URL: LEX.UZ.
6. Malikov T.S. Byudjet-soliq siyosati: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019. – 376 b.
7. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: darslik. – Toshkent: Noshir, 2011. – 712 b.
8. Shernayev A.A., Jiyanova N.E. Davlat moliyasini boshqarish: darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019. – 364 b.
9. Xasanov B.A. tahriri ostida. Moliya va soliqlar: darslik. – Toshkent: Lesson Press, 2023. – 564 b.